

IVLIN VO VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI

Murodova Mukadas Ikromovna

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

ОБРАЗ ДУХА В ИСТОРИЯХ ИВЛИНА ВО И АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Муродова Мукадас Икромовна

Камтакорганский филиал Самаркандинского государственного
университета,

доктор философии по филологии (PhD)

THE PORTRAIT OF SPIRITUALITY IN THE STORIES OF IVLIN WA AND ABDULLA QAHHOR

Murodova Mukadas Ikromovna

Kattakurgan Branch of Samarkand State University

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Annotatsiya: Badiiy asar – yozuvchi tafakkurining mahsuli bo'lib, unda ijodkorning iste'dodi, mahorati, dunyoqarashi, adabiyotning qonun-qoidalari va yozuvchining uslubi mujassam bo'ladi. Badiiy asar mavzusi va mazmuni asar yaratilgan ijtimoiy davr, shuningdek, yozuvchi ruhiyati bilan bevosita chambarchas bog'liqdir. Shu sababli yozuvchi o'zi ko'rмаган, his qila olмаган narsa, voqeа-hodisa haqida ta'sirli qilib yoza olmaydi.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, ruhiyat tasviri, psixologik tasvir, psixologik obraz, xayolot olami.

Аннотация: Художественное произведение – продукт мышления писателя, в котором воплощены талант, мастерство, мировоззрение художника, правила литературы и стиль писателя. Тема и содержание художественного произведения напрямую связаны с социальным периодом, в который было создано произведение, а также менталитетом писателя. Вот почему писатель не может эффективно писать о вещах и событиях, которых он не видел и не чувствовал.

Ключевые слова: художественная психология, образ психики, психологический образ, психологический образ, фантастический мир.

Abstract: A work of art is a product of the writer's thinking, in which the artist's talent, skill, worldview, the rules of literature and the writer's style are embodied. The theme and content of a work of art are directly related to the social period in which the work was created, as well as the writer's mentality. That's why the writer can't write effectively about things and events that he hasn't seen or felt.

Key words: artistic psychology, image of psyche, psychological image, psychological image, fantasy world.



E-mail: murodova@mail.ru

Orcid: 0009-0007-4381-7167

KIRISH (БВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Yozuvchi asardagi badiiy obraz xarakterini ochib berish uchun badiiy tasvir vositalaridan hamda psixologizmning usul va vositalaridan unumli foydalanadi. Psixologik tasvir atamasi psixologiya, badiiy psixologizm, psixologik tahlil, psixologik obraz kabi atamalar bilan bevosita bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). A.B. Yesin nazariyasiga ko‘ra, “badiiy psixologizm – asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berishdir” [1;8]. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyevalar “badiiy psixologizm – badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami”, deya ta’riflashadi [2;48].

N.G. Chernishevkiy psixologik tahlil turlarini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) xarakter qirralari ochib beriladi;
- 2) xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta’siri ko‘rsatib beriladi;
- 3) xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligi ko‘rsatiladi;
- 4) qahramonning ichki kechinmalari tasvirlanadi [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Ivlin Vo va Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlari go‘yo jonli odamlardek kitobxon bilan sirlashadi, dardlashadi, hatto quvonchiga sherik qiladi. Yozuvchilar asar qahramonlarining psixologik portretini yaratishda buyuk mahorat ko‘rsatishgan. Qahramonlar psixologiyasi ularning nutqidan, tashqi ko‘rinish tavsfidan, xatti-harakatidan anglashiladi. Hikoyalarda ijodkorlar qahramonlar ichki dunyosiga chuqur kirib borib, obraz ruhiy olamining va qalb kechinmalarining batafsil tasvirini chizib berishgan. So‘z zargari Abdulla Qahhor: “Yozuvchi biror hodisaga o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo‘zg‘atishi uchun, avvalo, o‘sha his o‘zida bo‘lishi kerak. Yozuvchi o‘zi his qilmagan narsa to‘g‘risida

yozsa, buni o‘qigan o‘quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. His qilinmasdan yozilgan narsa qog‘ozdan qilingan gulga o‘xshaydi” [4;50]. Ikkala adib ham hikoyalari shunday kuchli his bilan yozishganki, uni o‘qigan o‘quvchilarda qahramonlarga nisbatan muhabbat va nafrat tuyg‘usi shakllanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har ikkala ijodkor ham hayotni, odamlar ruhiyatini sinchiklab o‘rgangan kuchli psixologdir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Adiblar o‘z hikoyalarda jamiyat rivojiga raxna soluvchi tengsizlik, mustaqil fikrlashdan mahrumlik, tobelik, bilimsizlik, ig‘vogarlik, xushomadgo‘ylik kabi illatlarni fosh etishgan. Ular o‘z davri jamiyatida shu kabi illatlarning guvohi bo‘lishgan va ularni tag-tomiri bilan yo‘q qilish tarafdoi sifatida hikoyalarda satira ostiga olgan. Ivlin Vo hamda Abdulla Qahhor shunday tubanliklarni satira o‘qi bilan urganki, adabiyot ularning davatlariga bo‘ysunib, bu qabihliklarga qarshi o‘t ochishi zarur bo‘lgan. Har ikkala adib tabiatan fe'l-atvorlari o‘z otalariga o‘xhashgan. Ivlin Vo tezda jahli chiqadigan, ta’sirchan, rostgo‘y, Abdulla Qahhor esa nozikta‘b, kamtar, oddiy, rostgo‘y, madaniyatli, qattiqqo‘l odam bo‘lishgan. Ijodkorlar xarakter-xususiyatlarining muayyan jihatlari, albatta, qahramonlarida qaysidir ma’noda bo‘y ko‘rsatgan. Quyida adiblarning erkak ruhiyatiga bergen tasvirlarini muqoyosa qilamiz. “Tanzazulga yuz tutgan sevgi” (“Love in the Slump”) qahramoni Tom – o‘z mustaqil fikriga ega emas, birovga mute shaxs. U shunchalar ojizki, hatto uylanish masalasida ham o‘z fikrini aytolmaydi. Uning roziligesiz unashtiruv haqida e‘lon beriladi. U bu ishdan mammunmi yoki norozi ekanligi haqida ham so‘ralmaydi: “And before Tom knew whether he was pleased or not, the engagement had been announced” [5;65].

Abdulla Qahhor “Birinchi domlam” (1952) nomli maqolasida “Men birinchi saboqni Gogoldan olgan edim... Gogol asarlarini o‘qiy boshlaganimdan keyin uzoq “jiddiy” hikoya yozolmay yurdim. Bunga sabab, bir tomondan, nima yozsam yosh bolalar devorga soladigan suratday hazilakam ko‘rinavergani bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Gogol qahramonlari menga xalal bergenligi edi. Nihoyat, “Boshsiz odam” degan hikoya yozdim. Birinchi hikoyam (“Yosh qizlar

o‘gay ota qo‘lida”) bu voqealha qanda o‘quvchiga ma‘lumot bergan va unga o‘z munosabatim qanday ekanini xat satrida ta’kidlagan bo‘lsam, “Boshisiz odam”da o‘zim “xolis” turib, o‘sha vaqtdagi hayot lavhalaridan birini ko‘rsatishga va bunda birlinchi marta odamning xarakteriga qo‘l urishga harakat qilgan edim [6]:

Oldingi tahlillarimizda ta’kidlab o‘tilganidek, Tom (“Tanazzulga yuz tutgan sevgi”) befarq va loqayd erkak obrazidir. Bu obraz o‘z mustaqil fikriga ega emasligi bilan Abdulla Qahhorning “Boshisiz odam” hikoyasidagi qahramon Faxriddingga yaqin turadi. U ham balog‘atga yetganiga qaramay, otasiga tobe, mustaqil fikr yurita olmaydi.

Shu bois “Nisobuvi qizining Faxriddindan tug‘ishini xohlamas edi... U betini qattiq qilib kuyoviga aytidi:

— *Faxriddin, hali yoshisizlar, uch-to‘rt yil bola bo‘lmagan yaxshi. Doktor shu ishlarni ham bilmikan?..*

Faxriddin orqasida biron qiziq voqealar bo‘layotganday orqasiga qarab javob berdi:

— *Bilmasam... dadam biladilar...*

— *Qo‘ying, qo‘ying, dadangizdan so‘ramang, uyat bo‘ladi*.

Faxriddin jismonan ulg‘aygan bo‘lsa-da, aqli yosh bolanikidek. Undan nima so‘ralsa, “*Bilmasam... dadam biladilar...*” deb javob qaytaradi. Nisobuvi jisman katta, aqlan bola shaklidagi o‘gay o‘g‘lidan nevara ko‘rishni umuman xohlamaydi. Yozuvchi ushbu o‘rinda qahramon yoshi va uning aqlini qarama-qarshi qo‘yadi. Qanday gapirishni, nima deyishni o‘rgatib turadigan dadasi Faxriddinning farzandli bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga ham hukm chiqarishi lozim. Adib mustaqil fikriga ega bo‘lmagan yoshlarni keskin tanqid ostiga olgan.

Adib qahramonlarning nutqi, xatti-harakatlari orqali ularning xarakterini ochib beradi:

“*Chorshanba bozor kuni edi. Usta Abdurahmon Faxriddingga ikki so‘m pul berdi.*

— *Ma, yo‘ldan mayda-chuyda ol. Kirganindan keyin avval so‘ra, yengil bo‘lsa “xayriyat” degin. Sening yo‘qliging uchun uyda tura olmayotibman. Yomon bo‘lar ekan degin*” [7;260].

Ushbu nutq usta Abdurahmonning va o‘g‘li Faxriddinning ham xarakterini ochishga yordam beradi. Usta Abdurahmon o‘g‘liga nima qilishigacha, hattoki, er va xotin orasidagi

suhbatning qanday kechishigacha o‘rgatadi. Faxriddin – mustaqil fikriga ega bo‘lmagan, har bir ishda otasidan ko‘rsatma kutib yashaydigan obraz.

Shuni ta’kidlash lozimki, Abdulla Qahhor o‘z hikoyasini mohirona nomlagan. Hikoyada boshisiz odamlar ko‘p:

1. Usta Abdurahmon – oilasida notinch muhitni shakllantirgan, Niso buvining oldingi turmushidan bo‘lgan qizlarini doim urganda, xotiniga kulib turmasang, uchtaqosan shartini qo‘yan johil. Ongsiz, idroksiz farzandlarni tarbiyalagan ota.

2. Faxriddin – boshisiz. O‘zi umuman mustaqil fikr yuritolmaydi. Hattoki shaxsiy munosabatlarni ham dadamdan so‘ray deb turadigan landavur.

3. Chaqaloq boshisiz bo‘lib tug‘iladi, chunki uning otasida ramziy ma’noda fikrlaydigan bosh yo‘q. U ana shunday odam qiyofasidagi maxluqning bolasi.

4. Niso buvi – aqlsiz omi ayol. Qizini Faxriddindan farzand ko‘rishini umuman xohlamagani uchun Mehrining bo‘yida bo‘lganidan keyin turli xavfli usullar bilan bolani tushirmoqchi bo‘ladi: “*U Mehrini ko‘rpaga o‘rab, yangi qilinayotgan kigizday yumalatdi; qorniga yostiq bilan urdi, ustiga chiqib o‘tirdi; qo‘qqisdan qattiq qo‘rqitdi... Bularning hech qaysisi foyda bermadi*” [7;259]. Niso buvi aqlsizlik qilib, o‘z qizini shunchalar qiyinaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Ivlin Vo psixologik portret chizganda, har bir voqeal-hodisani to‘liq tasvirlaydi, Abdulla Qahhor esa har doimgidek so‘zga xasis, qisqa, lo‘nda jumla va iboralardan foydalaniib, qahramoning ruhiyatini yorqin bo‘yoqlarda ifodalaydi. Shuni aytish joizki, ikkala adib tomonidan chizilgan psixologik tasvirlar, portretlar va qahramonlar nutqi orqali ularning ichki dunyosidagi evrilishlarni tasavvur qilish mumkin. Adiblar qahramonlarining ichki dunyosini, dard-u alamini qisqa hikoyada ochib bera olishadi. Har ikki yozuvchi hikoyada badiiy psixologizmni yaratishda dialog, monolog, ichki va tashqi portret, peyzaj, tush, psixologik detal, psixologik tasvir va tafsilotdan samarali foydalanishgan.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES)**

1. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. – М.: Флинта: Наука, 2011. – С 180.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 356.
3. Чернышевский Н. Г. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека “Огонек”. – М.: “Правда”, 1974.
4. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. – Т.: Yosh gvardiya, 1968. – В. 50.
5. Waugh E. The Complete stories of Evelyn Waugh. Little, Brown and Company. – Boston New York London, 1999. – Р. 610.
6. Qahhor A. Birinchi domlam (1952) // <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-birinchi-domlam-1952/?lng=lat>
7. Қаҳхор А. Асаарлар: 5 жилдлик. 1-жилд: Сароб: Роман. Ҳикоялар / Редкол.: У. Умарбеков, Сайд Аҳмад, Э. Аъзамов ва бошқ.; Нашрга тайёрловчи К. Қаҳхорова. Сўзбоши муаллифи О. Шарафиддинов. — Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 260. Qahhor A. Adabiyot muallimi. Hikoyalar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2019. – В. 156.

